

MUVAFFAQIYATLI ISH – TO`G`RI QARORLAR NATIJASI

Almurodova Sobira

O`zMU talabasi

Anotatsiya: *Yaxshi bilamizki, muvaffaqiyatga erishishning tayyor retsepti yo`q. Sizning muvaffaqiyatingizga xizmat qiluvchi g`oyalar har yoqda sochilib yotgan g`ishtlarga o`xshaydi. Ularni to`g`ri tanlab, bino ko`tarish uchun bilim, tajriba va to`g`ri insonlar kerak. Ana shunda siz qurgan bino uzoq turadi. Imkonsiz tuyulgan ishlarni uddalashni muvaffaqiyat deyish mumkin. Buning uchun kelajak tomonga aql bilan harakatlanish lozim. Kelajak uni kashf qilganlarga nasib qiladi. Harakatchan insonlarga birinchi qadamni tashlashga qiziquvchanlik turtki beradi, uning ortidan esa ilm ergashadi. Muvaffaqiyat, bu – yerga urilgach, iloji boricha balandroqqa sakrash deganidir.*

Kalit so`zlar: *muvaffaqiyat, maqsad, kelajak, axloq, ilm, muvaffaqiyatsizlik, tajriba, tarbiya.*

Siz har doim atrofingizda yaxshi insonlar bo`lishini istaysiz. Bu sizning ularga nisbatan ishonchli bo`lishingiz va ular ortidan faxrlanib yurishingiz uchun juda muhim. Lekin, hech o`ylab ko`rganmisiz, atrofingizdagilar ham o`z yonidagilarni yaxshi va faxrlangulik bo`lishini istashadi. Sizdan hech bir naf tegmas ekan, ko`cha-ko`yda shunday tanishim bor deb kerilib yurolmas ekan, ular sizga muhtoj emas. Shunday ekan, siz faqat atrofingizda munosiblar bo`lishini emas, siz o`zingiz munosib inson bo`lish haqida o`ylang. Doim harakatda bo`ling. Atrofdagilardan nimadir oling, lekin, darhol o`zingizdan nimadir ulashing. Bu hisob-kitobni hech qachon buzmag. Shunda yaxshilarning o`zi atrofingizda to`plana boshlaydi. Yoxud to`planganlar orasidan eng munosiblarini o`zingizga do`st deb bilishga imkoningiz bo`ladi. Ammo, o`zim zo`rman deb, hech qachon atrofingizda takasaltang, dangasa, tilyog`lamalarni yig`ib olmang. Chunki, ular sizdan nimadir yaxshilik olsa, albatta o`rniga o`z yomonligidan yuqtiradi. Shuning uchun kerakli insonlaringizni boyligi yoki tashqi ko`rinishiga emas, farosati va saviyasiga qarab jamlang. O`zingiz esa ularga loyiq bo`lish uchun yana va yana harakat qiling. Ya`ni, bir qonuniyatni hech qachon buzmag! Muvaffaqiyatlilar oldida muvaffaqiyatsiz bo`lishning ham, munosib bo`lmaganlar oldida munosib bo`lishning ham oxiri hech narsa. Birlari sizni keraksizga chaqiradi, birlari o`ziga o`xshatib qo`yadi! Tiriklikning sir-u asrori ilm, odob, ongli faoliyat bo`lsa, uning asosi zukko aql, davomiyligi – samarali mehnat. Bu jarayonda vaqtdan unumli foydalanish sirlari tilsimini topishga ko`maklashadi. Insonning o`ziga bahosini oyna bilan qiyoslash mumkin. Agar oyna qiyshiq bo`lsa, inson qiyofasi ham qiyshiq ko`rinadi. Xuddi shu kabi kishining o`ziga bahosi nato`g`ri, noxolis bo`lsa, u qiyshiq oyna kabi noto`g`ri aksni ko`rsatadi. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat. Bu hikmatli so`zlar Jaloliddin Rumiya tegishlidir. Siz o`zingizga bo`ysunishingiz va o`z qarorlaringizga itoat qilishni o`rganmog`ingiz lozim. Chunki, har qanday narsaga har tomonlama nazar soling – foydasini ham, zararini ham ko`ring. Boshqalarning fikrini o`ylab o`tirgandan ko`ra o`z ustingizda ko`proq ishlang.

Hayo va iymon ikkisi bir-biriga yaqinlashtirilgan. Qachon ulardan biri yo`qolsa, boshqasi ham yoqoladi. Olimlarning aytishicha, odamzod yomon gap gapirsa, uyat so`z aytsa, birovni so`ksa, haqorat qilsa, bu narsa shu o`sha zahoti o`sha odamning hujayralariga ta`sir qilar ekan. Masaru Emoto degan yaponiyalik olim bir idishga suv quyib, tajriba o`tkazdi. Suvning oldida yaxshi gaplar aytsangiz, suvning molekulari chiroyli kristallarga aylanadi. Yomon so`zlar, so`kishlar, haqoratlar aytilsa, suvdagi kristallar buzilib ketadi. Doimo so`kish, haqorat bilan, kufr so`zlar bilan yashab o`tgan odamga qarab uning hayotida hech bir yaxshilik bo`lmaganini ko`rasiz, chunki u o`zini-o`zi barbod qilyapti, yo`q qilayapti, qonini, genini buzyapti. Ammo, u nafaqat o`zini buzadi, balki bu buzilish uning yetti avlodigacha meros bo`lib qoladi.

Siz hozirda katta hayot bo`sag`asida turibsiz. Ba`zan kelajak uchun ulkan rejalar tuzasiz. Ularni amalga oshirish yo`llarini qidira boshlaysiz. Ba`zida shirin xayollarga berilasiz, ba`zida esa qo`rqib ketasiz. Oynaga tez-tez qaraydigan bo`lib qoldingiz. Kiyimlaringiz ham yarashmayotganga o`xshab qolganday go`yo. Ba`zida hamma sizning fikringizga qarshidek. Buning sababi nimada?... Albatta, sizning oldingizdagi katta hayot ummoni turibdi. Bu ummonda suzish uchun ayrim jihatlariga moslashish, qat`iylik, shijoat, andisha, oriyat, ijodkorlik kabi bir qancha xislatlar zarur bo`ladi.

Siz o`zingiz havas qilgan biror insonning hayotini o`rgansangiz, uning muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmaganligiga guvoh bo`lasiz. Yaxshi hayotga erishgunga qadar har bir kishi sinovlardan o`tadi, mag`lubiyatga uchrab, yaxshi hayot uchun kurashadi. Hayotda ko`p sinovdan o`tganlar odamlarni oson tushunadilar, his qiladilar, muloyimlik va jonkuyarlik bilan boshqalarning yarasiga malham bo`lishga intiladilar. Bunday odamlarning kamol topishi – hayotning noyob hodisasi. Asl muvaffaqiyatsizlik, bu – hayotda harakatdan to`xtash. Intilayotgan ekansiz, hali sizda imkon bor. Orzu va rejalar ortidan qunt bilan borgan, maqsad sari intilgan inson muvaffaqiyatdan ko`proq huzurlanadi. Kechagi muvaffaqiyatsizlik bilan yashamang. Muvaffaqiyatsizlikni tajriba, o`shish va rivojlanish uchun saboq hamda imkon sifatida qabul qiling. Muvaffaqiyatsizlik qoqilishga o`xshaydi – sodir bo`lishi muqarrar, lekin qoqilgach qayta turib, yo`lda davom etishni, to`xtab qolmaslikni unutmaslik kerak. Muvaffaqiyat – qilingan xatolarni takrorlamaslik degani. Xatolarni takrorlamaslik uchun nima qilish zarur?

Qayerda noto`g`ri yo`l tutganingizni tushuning: sababini aniqlang va shunga qarab rejangizni o`zgartiring.

Tajribani unutmang: tajriba to`plashdan qo`rqmang. Urinib ko`ring, muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz, tajribaga ega inson bo`lasiz.

Qo`rqvni rad eting: bir marta, ikki yoki uch marta urinishlar muvaffaqiyatsizlik bo`lsa, qo`rqish foydasiz ekanini anglaysiz.

Xatoni tan oling: aybni boshqaga to`nkamang. Siz xatoni tan olsangizgina siljishingiz mumkin.

Muvaffaiyatsizlik – vos kechish uchun sabab emas. Stiven Spilberg Kaliforniya universitetiga kirishni orzu qilgan. Biroq 12 yoshida 8 daqiqali film yaratgan Stiven uch marta urinib ham bu o`quv yurtiga kirolmagan. Shunday bo`lishiga qaramay, u rejissorlikdan vos kechmadi. O`n ikki marotaba Oskor mukofotining “Eng yaxshi film

uchun” nominatsiyasida taqdirlangan ijodkorni bugun yosh-u qari yaxshi taniydi. Bir vaqtlar uni qabul qilmagan universitet 1994-yilda Stivenga faxriy diplom berdi. 1996-yilda esa rejissor iqtisodiy qiyinchilikka uchragan bu universitetni otaliqqa oldi.

Muvaffaqiyatga yetishimiz uchun axloqimiz ham yetarli bo`lishi darkor. Axloq – insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib tarbiyasiz, axloqsiz bo`lib o`sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo`l uzatmoq kabidir. Axloqimiz binosining go`zal va chiroyli bo`lishiga tarbiyaning zo`r ta`siri bordir. Tarbiyaning axloqga, albatta, ta`siri boladi. Oramizda bir masal bor, “sut ila kirgan, jon ila chiqar”. Mana bu so`z to`g`ridir. Yaratgan insonlarni asl xilqatda iste`dod va qobiliyat, yaxshi ila yomon, foyda ila zarar, oq ila qorani ajrata oladigan qilib yaratganlar. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bog`liqdir. Qush uyasida ko`rganini qiladi. Inson jabhari qobildir. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go`zal xulqlarga odatlanib katta bo`lsa, baxtiyor bir inson bo`lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzulib o`ssa, Allohdan qo`rqmaydigan, shariatga amal qilmaydigan, nasihatni qulog`iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir inson bo`lib yetishadi. Abdulla Avloniyning hikmatli bir so`zida: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, deyilgan.

O`z hislarini boshqarish va boshqalarning his-tuyg`ularini tushunish hayotda muvaffaqiyat qozonishda muhim ahamiyatga ega. Hissiy bilish – insonning hislarni fahmlash, farqlay olish, boshqalarning xohish va istaklarini tushunish hisoblanadi. Bu ko`nikma insonga maqsadi yo`lida o`z hislarini va boshqalarning hislarini boshqarishga yordam beradi. Biz ba`zida tashvishlardan vahimaga tushamiz yoki boshqalarning xatti-harakatlaridan g`azablanamiz. Ammo bu qanchalik asosli? Agar g`azab yoki vahima qilish qimmatga tushishini bilsangiz, hislarni boshqara olsangiz – sizda hissiy bilish ko`nikmasi bor. Bir hadisda shunday deyilgan. G`azabdan saqlaning, chunki g`azab odamzod ichida yonib turgan bir cho`g`dir. Sizlardan biringiz g`azablanganingizda ko`zlari qizarib, tomirlari bo`rtib chiqqanini ko`rmingizmi? Agar qay biringiz o`zida g`azab alomatlarini sezsa, yotib olsin yoki o`tirib olsin.

Insoniyat tarixini o`zgartirgan va o`zgartirayotgan insonlardagi umumiy o`xshashliklardan biri – tanqidiy fikrlash qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash – muvaffaqiyat qozonishga, baxtli yashashga, mo`may daromad topishga, hurmat qozonishga xizmat qiladi. Xo`sh, tanqidiy fikrlash qanday sodir bo`ladi? Tassavur qiling, siz ko`p ma`lumotlarni bilasiz va kuchli xotiraga egasiz. Lekin bu qobiliyatlaringiz sizga qarshingizdagi muammoni hal qilishga yordam bera olmaydi. Chunki sizda hozircha tanqidiy fikrlash ko`nikmasi yetishmayapti. Muammoni hal qilish uchun yangi g`oya kerak. Muammoning ijobiy yechim topishi nafaqat yangi g`oyalarga, balki ularning qanchalar foydali ekaniga bog`liq. Tanqidiy fikrlash ko`nikmasi orqali g`oya-fikrlarni baholaymiz, eng yaxshilarini saralaymiz va ulardan hayotimizni o`zgartirish uchun foydalanamiz. Tanqidiy fikrlaydigan odam g`oya va fikrlarni bog`lab turgan aloqalarni yaxshi tushunadi. Natijada, u dunyoni boshqalardan ko`ra yaxshiroq va tezroq anglaydi. Tasavvur qiling, siz qora rangli buyum oldidasiz. Ammo uning ichi yoki boshqa tomoni oq bo`lishi mumkinligi haqida o`ylaganmisiz? Ehtimol

tashqaridan qo`pol ko`ringan odam ich-ichidan mehribon bo`lib chiqishini taxmin qilgan bo`lishingiz mumkin. Tanqidiy fikrlash – muammoni hal qilish uchun ma`lumotlardan aniq va oqilona foydalana olish, savol berish orqali qo`shimcha ma`lumotlar topish ko`nikmasidir.

Hayotimizni faqatgina yaxshi va mukammal odatlar ila o`zgartirishimiz mumkin. Shunday odatlar borki, inson ruhiyatini va quvvatini boyitib, olg`a borishga xizmat qiladi. O`zingizni olg`a borishga majburlang. Kichik g`alaba ham sizni ilhomlantiradi va hayotingizni yaxshi tomonga o`zgartiradi. Buning uchun esa qulay hududdan chiqing. Kichik qadam tashlang va qulay hududdan vos keching. Kichik odatlar katta sa`y-harakatni talab qilmaydi. Xohish kuchi – iqtidor kuchidan ustun. Bir maqolni unutmang: “Muntazam yurgan – uzoq yuradi”. Kuchli xohish doimo rag`bat bilan quvvatlanishi shart. Son emas, barqarorlik muhim. Kichik odatlarga doimiy odatlanish mumkin. Kichik natijalardan ham xursand bo`ling, ularni katta g`alaba deb biling. Yaxshi maqsad yo`lida ishonch bilan harakat qiling. Baxtiorlik tashqi omillarga qarshi jismonan kurashish emas, ichkarida – ong-shuurda o`rnashib olgan shubha-gumonni ishonch orqali yengish degani. Boisi, bu dunyoda bizning ko`pchiligimiz eng ko`p mag`lub bo`ladigan dushman, bu – ichimizdagi qo`rquv.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

9-sinf Tarbiya darsligi.

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

t/g: Motivatsion blog.